

Mirzahmedov Ulug'bek Uyirbekovich

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
Musiqa ta'limi va san'at mutaxassisligi 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'sib kelayotgan yosh avlodning ta'lim va tarbiya jarayonida musiqa va san'atning keng qamrovidagi o'rni hamda buni oiladan boshlash muhim vazifa ekanligi nazarda tutilgan.*

Kalit so`zlar: *musiqa tarbiyasi, inson ruhiyati, bola psixologiyasi, pedagogik qarash, oilaviy muhit, inson kamoloti, milliy musiqa, milliy an'ana.*

Inson kamolotida uning ko'pchilik narsalarga zarurati tug'iladi. Deylik kundalik sharoitidagi zaruriyatları: u aqliy mehnat bilan shug'ullangandan keyin dam olib xordiq chiqarmog'i, odatiy 3 uch mahallik tamaddi qilmog'i, shu jumladan jismoniy mehnat bilan ham shug'llanmog'i lozim. Ulardan tashqari inson aqliy salohiyatini, ma'nnaviyatini chiniqtirishda va boyitishda ko'proq o'qishi, baxsli mavzularda ko'proq muloqot qilmog'i kerak. Insonning yana bir ajib qirrali tomoni borki, u ham ozuqaga muxtoj bo'ladi. Bu uning ruhiy holati, ruhiy tomoni hisoblanadi. Ruhiyat insoning ko'pgina imkoniyatlarini namoyon bo'la olishida va o'ziga bo'lgan ishonchini ta'minlashida eng muhim tomonlardan biri. Odamning barcha mavhum his tuyg'ulari uning ruhiyati asosida kelib chiqadi. Ruhiyatning ozuqasi esa bevosa musiqa hisoblanadi.

Musiqa san'ati juda qadimda paydo bo'lgan. Ibtidoiy jamoa tuzumi davrida yashagan odamlar tabiatdagi musiqiy va shovqin tovushlarni farqlay bilganlar, kuylashni o'rganganlar, dastlabki cholg'u sozlarini yaratganlar. Hozirgi kungacha bu sozlar takomillashgan, ulardagi ijro uslublari ham rivojlanib boyigan. Xalq orasidagi musiqiy qobiliyatlarga ega bo'lgan kishilar ajoyib musiqa asarlari yaratib musiqa san'atini boyitganlar.

Musiqa san'ati paydo bo'lidan boslab bugungi kungacha ikki yo'nalishda rivojlangan, degan fikr o'rinci. Birinchi yo'nalish - xalq musiqiy ijodi. Ikkinchi yo'nalish - kompozitorlik ijodi.

Qadimda xalq orasida xonanda va sozandalar yashagan. Ular kuy va qo'shiqlar yaratganlar. Bu asarlar nota yozushi bo'lganligi sababli og'izdan-og'izga o'tib bizgacha etib kelgan. Kim yaratganligi noma'lum bo'lgani sababli bu asarlarni xalq musiqiy ijodining mahsuli deyiladi. Ma'lumki yaratuvchanlik, ijod, insonga xos fazilatdir. Har bir avlod kuy va qo'shiqlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritgani uchun bu asarlar xalqniki degan fikr asoslidir.

Kompozitorlik ijodi nota yozuvi paydo bo'lgandan so'ng rivojlangan. Kompozitorlar o'z asarlarini nota bilan yozadilar. Bu erda muallif aniq bo'lgani sabab ularning asarlari xalq musiqiy ijodi namunalaridan alohida turadi.

Har bir san'at turining o'z janrlari bo'lgani kabi musiqa san'atining ham o'z janrlari bor. «Janr» so'zi frantsuzcha bo'lib "san'at asarining turi" degan ma'noni bildiradi. Masalan, rassomchilikda portret, natyurmort, peyzaj kabi janrlar bor. Musiqa san'ati janrlari ikki xil:

1. Xalq musiqa ijodi janrlari.
2. Kompozitorlik ijodi janrlari.

Masalan o'zbek musiqasida xalq musiqa ijodi janrlari quydagilardir: qo'shiq, maqomlar, dostonlar, katta ashula va boshqalar. Kompozitorlik ijodi janrlariga quydagilar kiradi: opera, balet, simfoniya, sonata va boshqalar. Xalq musiqa ijodi va kompozitorlik ijodini solishtirganda xalq ijodi balandroq turishini e'tirof etish zarur. Xalq ijodi doimiy ravishda kompozitorlarga namuna bo'lib kelgan. Kompozitorlik ijodi xalq musiqiy merosi namunalari ta'sirida rivojlangan.

Har bir xalqning o'z musiqa san'ati bor. Boshqa san'at turlari bilan bir qatorda musiqa ham xalq ma'naviy taraqqiyotining ko'zgusi hisoblanadi. Musiqa san'ati asarlarida xalqning **Musíqa** (yunoncha μουσική — ilhom parilari san'ati) — tovush san'atidir; musiqiy asarga nisbatan ham *musiqa* atamasi qo'llanishi mumkin.

Musiqa (yun. mousiche —muzalar san'-ati) — inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush (ton, nag'ma)lar izchilligi yoki majmui vositasida aks ettiruvchi sanat turi. Uning mazmuni o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi mu-ayyan musiqiybadiiy obrazlardan iborat. Musiqa insonning turli kayfiyatları (mas, ko'tarinkilik, shodlik, zavklanish, mushohadalik, g'amginlik, xavf-qo'rquv va boshqalar)ni o'zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, Musiqa shaxsning irodaviy sifatlari (kat'iyatlik, intiluvchanlik, o'ychanlik, vazminlik va boshqalar)ni, uning tabiat (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi. Musiqaning ushbu ifodaviytasviriy imkoniyatlari yunon olimlari — Pifagor, Platon, Aristotel va Sharq mutafakkirlari — Forobi, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Bobur, Kavkabiy, tasavvuf arboblari — Imom G'azoliy, Kalobodiy Buxoriy va boshqa tomonidan yuqori baholangan, sharh va ilmiy tadqiq qilingan. Musiqaning odam ongi va hissiyotiga ta'sir etishning ajoyib kuchi uning ruhiy jarayonlarga hamohang bo'lgan protsessual — muayyan jarayonli tabiat bilan bog'liqsir. Musiqa asarlari mazmunida musiqali obrazlarning o'zaro munosabatlari (taqqoslanish, to'qnashuv, rivojlanish kabi) jarayonida shakllanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlari ko'ra Musiqa mazmuni ham turli — epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo'lishi mumkin. Bulardan insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlarini ifodalashga moyil bo'lgan lirika Musiqaning "botiniy" tabiatiga ancha yaqindir. Musiqaning mazmuni — shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo'lib, bunda ma'lum xalq, jamiyat va tari-xiy davrga xos ruhiy tarovat, sur'at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. Musiqa shakllari har bir davrning

ma'naviyima'rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaqtida inson faoliyatining ko'pgina jabhalari (muayyan jamoaviy tadbirlar, odamlarning o'zaro etik va estetik ta'sir etish, muloqot qilish jarayonlari) bilan mushtarakdir. Musiqaning, ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg'ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir.

Musiqa inson madaniyatida va jamoaviy hayotda o'ziga xos o'ringa egadir. U dam olish va ko'ngil ochish paytlari, turli marosim, bayram, bazm va sayillar, diniy va rasmiy tadbirlar, ommaviy va harbiy yurishlar, sport mashklari va mehnat jarayonida muayyan vazifalar bajaradi. Shuning uchun Musiqa asarlari o'z mazmuniga muvofiq holda bir nechta uslub, tur va janr guruhlariga ajratiladi.

Musiqa ixlosmandlari ham ijro etilayotgan asarni ularining xususiy didi, hayotiy va badiiy tajribasiga asoslanib qabul qilishadi. Shunday qilib, Musiqa faoliyati hamma bosqichlarda ijodiy tabiatga ega bo`ladi.

o'z aksini topgan.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. Jahon musiqasi tarixi fanidan o'quv qo'llanma: G'arb musiqa san'atining XVIII asrgacha shakillanish va rivojlanish davri/ G. va R. Tursunova - Toshkent 2017
2. O'zbek musiqasi tarixi/ T. E. Solomonova - Toshkent "O'qituvchi" 1891
3. Doston navolari/ B. Matyoqubov - Toshkent 2009
4. Mahkamova, S. R. (2021). MAKTAB O'QUVCHILARIDA MUSIQA MADANIYATI DARSLARINING INTEGRALLASHUVI. Scientific progress, 1(5).
5. Xalilova, M. M. (2021). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA MUSIQA TALIM TARBIYASINING DOLZARBLIGI. Scientific progress, 1(5).